

UDK: 635.65.631.51

LOVIYANING O'SISHI, O'SISH JADALLIGI VA O'RTACHA SUTKALIK O'SISHIGA SUG'ORISH TARTIBLARINING TA'SIRI

Otayarova Gulshoda Uzakovna, assistent,

Xalilov Nasriddin, professor

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar
universiteti,

Ravshanova Nilufar Adilovna, q.x.f.f.d.

(PhD) Sholichilik ilmiy tadqiqot instituti,

Tursunov Shermuxammad Nurmatovich Don-dukkakli ekinlar ilmiy tadqiqot
instituti Samarqand ilmiy tajriba stansiyasi direktori.

***Annotatsiya:** Maqolada loviya "Ravot" va "Mahsuldor" navlarining o'sishi, o'sish jadalligi va o'rtacha sutkalik o'sishiga sug'orish tartiblarining ta'siri bo'yicha tadqiqotlar natijalari keltirilgan. Sug'orish tartiblari ta'sirida o'simlik bo'yining o'sishi navlar bo'yicha taqqoslanib, biometrik hisoblash ishlari olib borildi. Tajriba natijalari shuni ko'rsatdiki, loviya "Mahsuldor" navining bo'yi "Ravot" naviga nisbatan uzun bo'lganligi kuzatildi.*

***Kalit so'zlar:** o'sishi, o'sish jadalligi, o'rtacha sutkalik o'sishiga, sug'orish tartiblari, dukkak, jadal o'sish, CHDNS.*

Kirish. So'nggi yillarda kuzatilayotgan suv taqchilligi qishloq xo'jaligida sug'oriladigan ekin maydonlaridan foydalanish koeffitsientini pasayishiga sabab bo'lmoqda va mahsulot tan narxini oshishiga olib kelmoqda. Respublikamizda oziq – ovqat ekinlarini etishtirish hajmlarini oshirish va ularning turlarini ko'paytirish hamda aholini oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabini qondirish va shu asosda

aholi turmush darajasini yo'ksaltirish borasida Prezidentimiz tomonidan bir qancha qaror va qonunlar ishlab chiqildi. 2015 yil 29 dekabrda "2016-2020 yillarda qishloq xo'jaligini yanada isloh qilish va rivojlantirishning chora – tadbirlari to'g'risida" gi qarori keying 5 yil davomida mamlakatimizda tuproq unumdorligi past, past rentabellikka ega paxta maydonlaridan 170,5 gektar, g'alla maydonlaridan 50 ming jami 220,5 gektar maydonni qisqartirib, shu maydonlarga tuproq unumdorligini oshiradigan, aholini oziq-ovqat, chorvachilikni yem-xashak bilan ta'minlaydigan dukkakli-don, yem-xashak, sabzavot, poliz va kartoshka ekinlarini bosqichma-bosqich ekishni tashkil etish belgilangan [3].

Dunyo dehqonchiligida loviya 27 mln gektar maydonga ekilib, o'rtacha hosildorligi 19 s/gani tashkil qiladi. Loviya eng ko'p Amerika va Osiyo qit'alari mamlakatlarida yetishtiriladi. Loviya yetishtirish bo'yicha Hindiston 9,5 gektar maydonga ekib, o'rtacha hosildorlik – 21,4 s/ga, Braziliya 4,15 gektar maydonga ekib, o'rtacha hosildorlik 14,7 s/ga, va Xitoy 11,5 gektar maydonga ekib o'rtacha hosildorligi 7,6 s/gani tashkil qiladi [1].

So'nggi yillarda mamlakatimizda 330,5 ming gektar maydon dukkakli don ekinlari uchun ajratilib, shundan 35,8 ming gektar maydonga loviya ekilib, asosiy ekin sifatida 5,1 ming, takroriy ekin sifatida 24,5 ming gektar maydonga ekilib kelinmoqda.

Tadqiqotning maqsadi. Loviya yangi "Ravot" va "Mahsuldor" navlarining o'sishi, rivojlanishi va hosildorligiga sug'orish tartiblarining ta'sirini o'rganish va eng maqbul sug'orish tartiblarini aniqlab ishlab chiqarishga tavsiyalar berish.

Tadqiqotning vazifalari: loviya urug'larining laboratoriya va dala sharoitida unuvchanligi va o'simliklarning hosil yig'ishtirishgacha tup sonini saqlanishini aniqlash;

loviya navlarining o'sish va rivojlanish davomiyligi aniqlash;

loviya navlarining ildiz tizimining rivojlanishini o'rganish;

loviyaning sug'orish tartibiga bog'liq hosildorligi va dukkak sifatini aniqlash;

asosiy ekin sifatida ekilgan loviyaning iqtisodiy samaradorligini sug'orish

tartibiga bogʻliqligini oʻrganish.

Tadqiqot natijalari va ularning tahlili. Samarqand viloyatining sugʻoriladigan oʻtloqi-boʻz tuproqlari sharoitida oʻtkazilgan tajribalarda, oʻsimliklarning boʻyi dastlabki rivojlanish fazasida (5-6 barglik) 11,4-12,5 sm ni tashkil etib, navlar va variantlar boʻyicha farq deyarli kuzatilmadi. SHoxlanish davrida oʻtkazilgan biometrik oʻlchashlarda oʻsimlik boʻyi «Ravot» navida 30,4-31,23 sm, «Mahsuldor» navida 34,1-35,4 sm ni tashkil etib, ushbu davrda Magʻsuldor navi «Ravot» navina qaraganda 4 sm balandligi hisobga olindi.

Gullash fazasida oʻtkazilgan biometrik oʻlchashlarda oʻsimlikning boʻyi «Ravot» navida 53,0-58,2 sm ni tashkil etib, sugʻorish tartibi taʼsirida oʻsimliklar 5 sm baland boʻlishi taʼminlangan boʻlsa, koʻrsatkichlar Mahsuldor navida yuqoridagiga mos ravishda 57,4-61,5 sm va 4 sm boʻlganligi aniqlandi. Ushbu davrda har ikkala nav boʻyicha ham oʻsish surʼati eng jadal boʻlganligi qayd etildi Dukkaklar shakllangan davrda oʻsimlik boʻyi variantlar boʻyicha 60,1-69,4 sm ni tashkil etib, «Mahsuldor» navi «Ravot» naviga qaraganda 1-2 sm baland boʻlganligi hisobga olindi. Vegetatsiya oxirida oʻtkazilgan tahlillarda oʻsimliklar boʻyi 62,6-73,9 sm boʻlib, «Ravot» navida sugʻorish tartiblari taʼsirida 6-8 sm, «Mahsuldor» navida 6-9 sm baland boʻlishi aniqlandi.

Oʻsimlik boʻyining balandligi davrlar boʻyicha tahlil qilinganida eʼtiborga loyiq natijalar qayd etildi. Oʻsimliklar oʻsish jadalligi dastlab juda jadal, shoxlanish, gullash dasrlarida jadal va keyingi davrlarda yanada sust boʻlganligi aniqlandi.

Oʻsimliklarning oʻsish jadalligi 5-6 barglik davrida jamiga nisbatan variantlar boʻyicha 16,31-18,76 %; shoxlanish davrida 27,43-34,70 %; gullashda 34,85-37,94 %; dukkak shakllanish davrida 7,69-13,13 % va pishish davrida 4,00-6,00 % ni tashkil etdi. Oʻsimliklarning oʻsish jadalligi nav xususiyati boʻlishi bilan birga, tuproq namligiga taʼsirchan koʻrsatkichligi aniqlandi. Gullash davrida hosil qilingan tuproq namligi (60; 70; 80 %) taʼsirida oʻsimliklarda morfologik oʻzgarishlar kuzatildi, jumladan tuproq namligi CHDNSga nisbatan 70-70-60 % sugʻorish tartibida oʻsimliklarning jadal oʻsishi kuzatilgan boʻlsa, tuproq namligi CHDNS ga

nisbatan 70-80-60 % sugʻorish tartibida yon shoxlar va ildizlar ham kuchli tarmoqlanganligi qayd etildi. Bu holat dukkak shakllanishiga qadar davom etdi.

Dukkaklar shakllanish davridan vegetatsiyaning oxirigacha har ikkala navda ham oʻsimliklar, tuproq namligi CHDNS ga nisbatan 70-80-60 % sugʻorish tartibida jadal oʻsganligi hisobga olindi.

Oʻsimliklarning oʻrtacha sutkalik oʻsishi unib chiqish – 5-6 barglik davrida 1,41-1,56 sm, 5-6 barglik-shoxlanish va shoxlanish-gullash davrlarida esa mos ravishda 0,63-0,76 va 0,73-0,90 sm ni tashkil etib, variantlararo farq kuzatilmadi.

Gullash-dukkak shakllanish davrida oʻsimliklarning oʻrtacha sutkalik oʻsishi variantlar boʻyicha «Ravot» navida 0,24-0,31 sm, «Mahsuldor» navida 0,17-0,27 sm ni tashkil etganligi aniqlandi. Har ikkala navda ham oʻsimliklarning oʻrtacha sutkalik oʻsishining yuqori koʻrsatkichi, tuproq namligi CHDNS ga nisbatan 70-80-60 % sugʻorish tartibida qayd etilib, «Mahsuldor» naviga qaraganda Navot navi ushbu davrda jadal oʻsganligi aniqlandi. Bu esa oʻz navbatida mazkur navda vegetativ oʻsish, generativ oʻsishdan ustunligini koʻrsatadi.

Xulosa, Samarqand viloyatining sugʻoriladigan oʻtloqi-boʻz tuproqlari sharoitida oddiy loviya navlari boʻyi unib chiqishdan gullashgacha jadal oʻsadi va gullashdan keyingi davrlarda oʻsish birmuncha susayadi. Vegetatsiya oxirida oʻsimlik boʻyi «Ravot» navida 63-71 sm, «Mahsuldor» navida 65-74 sm boʻlib, oʻsimlik boʻyiga sugʻorish tartiblari sezilarli darajada taʼsir koʻrsatadi. Ammo taʼkidlash kerakki, oʻsimlik boʻyining baland boʻlishi uning yotib qolishiga olib kelmadi. Tajribada yotib qolgan oʻsimliklar kuzatilmadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. <https://uz.tafsilar.info/politika/zbekistonda-dukkakli-jekinlar-k-pajtirila-boshlandi//>
2. <https://lex.uz/docs/5323647>
3. Xalilov N., Ravshanova N. va boshqalar Ang'izga ekish uchun yaroqli loviya yangi navlari va ularning agrotexnikasi (tavsiyanoma) //; Samarqand, 2014
4. Халилов, Н., Косимова, Ш., Отаярова, Г., Ўктамов, Х., & Абдуқодиров, Б. (2022). СИЛОС МАССА УЧУН МАККАЖЎХОРИ ДУРАГАЙЛАРИНИ ЕТИШТИРИШ ТЕХНОЛОГИЯСИ. *AGROBIOTEKNOLOGIYA VA VETERINARIYA TIBBIYOTI ILMIY JURNALI*, 1207-1209.
5. Усманов, Н. А., Равшанова, Н. А., & Отаярова, Г. У. (2021). ЗАВИСИМОСТЬ ДЛИНЫ ВЕГЕТАЦИОННОГО ПЕРИОДА СОРТОВ ФАСОЛИ ОБЫКНОВЕННОЙ ОТ СРОКОВ И СПОСОБОВ ПОСЕВА. *Academic research in educational sciences*, 2(10), 718-724.
6. Бекмурадова, Х. К., & Исмоилов, А. И. Самарканд, Узбекистан Samarkand Institute of veterinary medicine, Samarkand, Uzbekistan The scientific research institute of vegetable groups and potato studies in Samarkand scientific-experimental station, Samarkand, Uzbekistan. *ББК 65.2 С56*, 58.
7. Бекмурадова, Х. К., Исмоилов, А. И., & Ахмадалиев, Б. Ж. (2019). ОЦЕНКА ИСХОДНОГО МАТЕРИАЛА ДЛЯ СОЗДАНИЕ НОВЫХ УСТОЙЧИВЫХ К ВИРУСНОЙ МОЗАИКЕ СОРТОВ ТОМАТА. *Актуальные проблемы современной науки*, (3), 170-173.
8. . Омонов, А. Ж. (2021). ОПТИМИЗАЦИЯ СРОКОВ И НОРМ ПОСЕВА ПРОСА. *Актуальные проблемы современной науки*, (4), 83-87.
9. Xalilov, N., Omonov, A. J., & Fayzimurodov, J. B. O. G. L. (2023). TAKRORIYEKINSIFATIDAEKILGANTARIQNINGSARATOVSKOE 853 NAVININGO 'SUVD AVRIDA VOMIY LIGIGA EKISH MUDDATLARIVAME'YO RLARININGT

A'SIRI. *Academic research in educational sciences*, 4(SamTSAU Conference 1), 510-515.

10. Омонова, Ж. идр. INFLUENCE OF CONDITIONAL INSTALLATION ON BIOMETRIC INDICATORS AND GRAIN HARVEST //Life Sciences and Agriculture. – 2020. – Т. 2. – №. 2. – С. 60-64.

11. Uluqova, S. B., Mavlonov, B. T., & Ismoilov, V. I. (2023). KUZGI JAVDAR DON VA SOMON HOSILDORLIGIGA EKISH MUDDATI VA ME'YORINING TA'SIRINI BAHOLISH. AGROBIOTEXNOLOGIYA VA VETERINARIYA TIBBIYOTI ILMIY JURNALI, 2(4), 28-31.

12. Abdisaxatova, S. S., Ismoilov, V. I., & Mavlonov, B. T. (2024). Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti. *GOLDEN BRAIN*, 2(3), 76-80.